

Yodgorova Go'zal Olim qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
magistri
g973433717@icloud.com

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA IMOM AL-BUXORIYNING HADISLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Imom al-Buxoriy hadis sultoni 810-yilda tavallud topgan. 10 yoshidan boshlab hadislarini yod olgan va butun umrini hadis olamiga bag'ishlagan. Mutafakkir hadis ilmi va uning turli tarmoqlarini to'liq o'rganish, to'plash maqsadida Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa shaharlarda yashab inson ma'naviy olami uchun qadrli bo'lgan hadislarini to'plagan. Insoniyat madaniyati xazinasida shunday noyob kimsalar, nodir siymolar borki, hamma zamin-u zamonlarda barcha avlodlar ulardan o'zlari uchun ham ruhiy, ham ma'naviy ozuqa oladilar. Mazkur maqola boshlang'ich sinf darslarida Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatishning metodik usullarini tahlil qiladi. Maqolada hadislarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy metodlar va bolalarning yosh xususiyatiga mos hadislarini o'rgatish metodlari keltirilgan. Ushbu bilimlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining diniy, axloqiy, bilimlarini oshirishga, ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Hadislarini o'rgatish jarayonida hayotiy ko'nikmalar orqali bog'lagan holda interfaol usullar, rolli o'yinlar, zamonaviy metodlar orqali tushuntirishlar ochiqlab beriladi. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi interfaol metodlar o'quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashga imkon beradigan faoliyatlar yuritish mumkin.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflar, Imom al-Buxoriy, o'rgatish metodikasi, vizual ta'lim, ro'lli o'yinlar, interfaol metodlar, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, o'quvchilarni tarbiyalash, innovatsion pedagogik yondashuvlar, pedagogik metodlar, mehribonlik va odob, tarbiyaviy darslar, diniy tarbiya, hadis ta'limoti, tarbiyaviy darslar, o'yin orqali o'rgatish, savol-javob usuli, musobaqa usullari, hikoya va misollar, ilmiy ekskursiya, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar, ma'naviy qadriyatlar, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, innovatsion ta'lim usullari, ta'lim samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar, guruhlarda ishlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХАДИСОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ В КЛАССАХ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. Имам аль-Бухари хадис султан родился в 810 году. Он запомнил хадисы с 10 лет и посвятил всю свою жизнь миру хадисов. Мыслитель жил в Хиджазе, Египте, Ираке, Хорасане и других городах для сбора хадисов, ценных для духовного мира человека, с целью полного изучения и сбора науки хадиса и различных его ответвлений. В сокровищнице человеческой культуры есть такие уникальные люди и редкие деятели, что все поколения во все времена получают от них духовное и духовное питание. В данной статье анализируются методические методы преподавания хадисов Имама аль-Бухари в классах начальной школы. В статье представлены современные методы преподавания хадисов учащимся начальных классов и методы преподавания хадисов, подходящие для детского возраста. Эти знания способствуют повышению религиозных, нравственных знаний учащихся младших классов, формированию духовных ценностей. В процессе обучения хадисам разъяснения производятся открыто, посредством интерактивных методов, ролевых игр, современных методов, связывая их с жизненными навыками. Интерактивные методы, поощряющие активное участие учащихся, могут использоваться для проведения мероприятий, позволяющих учащимся свободно выражать свои мысли.

Ключевые слова: Начальные классы, Имам аль-Бухари, методика преподавания, визуальное образование, ролевые игры, интерактивные методы, духовное образование,

моральные ценности, обучение учащихся, инновационные педагогические подходы, педагогические методы, доброта и манеры, образовательные уроки, религиозное образование, учение хадисов, образовательные уроки, обучение через игры, метод вопросов и ответов, методы соревнования, истории и примеры, научный экскурсия, практика, интерактивные методы, духовные ценности, уровень мастерства учащихся, инновационные методы обучения, эффективность обучения, педагогические инновации, работа в группах.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING THE HADITHS OF IMAM AL-BUKHARI IN PRIMARY SCHOOL CLASSES

Annotation. *Imam al-Bukhari, known as the Sultan of Hadith, was born in 810. At the age of 10, he began memorizing hadiths and dedicated his entire life to the study of hadith. In his pursuit of mastering the science of hadith and its various branches, as well as collecting authentic narrations, he traveled to Hijaz, Egypt, Iraq, Khorasan, and other cities. Throughout his journey, he gathered hadiths that hold great spiritual and moral significance for humanity. Throughout history, there have been exceptional individuals whose wisdom and contributions serve as an invaluable source of spiritual and intellectual nourishment for all generations. This article analyzes the methodological approaches to teaching Imam al-Bukhari's hadiths in primary school lessons. It discusses modern teaching methods suitable for young learners, ensuring that the hadiths align with their age-specific characteristics. These teachings help enhance primary school students' religious and moral knowledge while fostering spiritual values. The process of teaching hadiths is explained through interactive methods, role-playing activities, and modern pedagogical techniques, integrating real-life skills to make the lessons more engaging. Interactive teaching strategies encourage students' active participation and provide opportunities for them to express their thoughts freely.*

Keywords: *Primary school, Imam al-Bukhari, teaching methodology, visual education, role-playing games, interactive methods, spiritual education, moral values, student upbringing, innovative pedagogical approaches, pedagogical methods, kindness and etiquette, educational lessons, religious education, hadith teaching, educational lessons, teaching through games, the question-and-answer method, competition methods, stories and examples, scientific excursions, practical workshops, interactive methods, spiritual values, students' level of assimilation, innovative teaching methods, educational effectiveness, pedagogical innovations, group work.*

Imom al-Buxoriy islom olamining eng mashhur muhaddislaridan biri bo'lib, uning "Al-Jome' as-Sahih" to'plami musulmonlar uchun muhim manba hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hadislarini o'rgatish, ularning axloqiy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik ochiqko'ngillilik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, niman qilish kerak, nimadan o'zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihad va o'gitlar aks ettirilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rganishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatish jarayonida soddalik, qiziqarlilik va hayotiy misollar orqali tushunish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Shu sababli Imom al-Buxoriyning hadislarini bolalarga samarali o'rgatish uchun bolalarning yoshiga mos holda ularni zeriktirmaydigan metodlardan foydalanish samaraliroq bo'ladi. Imom al-Buxoriyning hadislarini yosh bolalarga o'rgatish bolalarning qadriyatlarimizni, axloqiy jihatlari shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali mantiqiy tafakkuri to'liq rivojlanmagan, lekin kuzatish va

taqlid qilish, korganini bajarish orqali o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan yosh bolalar guruhiga kiradi. Ma'lumki, qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli, imon-e'tiqodli, komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlarimizning bizgacha yetib kelgan ma'naviy merosi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashda bamisoli yo'lchi yulduzdek xizmat qiladi. Imom al-Buxoriy tomonidan to'plangan hadislar insonni komillikka yetaklaydi, odob-axloqni mustahkamlaydi va yaxshi xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar bu hadislarini yoshligidan o'rganish orqali insoniy qadriyatlarini chuqur anglab, hayot mazmunini tushunib borishadi. Bolalar kundalik hayotda duch keladigan voqealar orqali hadislarini mazmunini chaqib ota-onalari bilan muhokama qilib borishadi va ko'p hadislarini kundalik hayotdagi vaziyatlar bilan mustahkamlab borishadi. Shu bois ushbu maqolamni yosh avlodni Imom al-Buxoriyning hadislarini boshlang'ich sinflarining kundalik hayotiga singdirish maqsadida hadislarini turli xil metodlar yordamida o'rgatishga harakat qildim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga qarab Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatish hozirgi zamonning muhim jihatlaridan biridir. Bilamizki, hadis ilmining rivojlanishi, keng tarqalishi uchun o'zining ulkan hissasini qo'shgan buyuk bobomiz Imom al-Buxoriy hisoblanadi. Barchamiz mana shunday buyuk bobokalonlarimizning hayot yo'llarini, qilgan barcha amallarini va to'plagan jamiki hadislarini o'rganishimiz, o'rgatishimiz, hayotga tatbiq etishimiz, bolalar hayotiga singdirishimiz va kelajak avlodga ham yetkazishimiz zarur. Hadislarning asosiy qismi odob-axloq masalalariga, insonlar hayotini yaxshilashga, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarga yechim topishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilarini buyuk bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning hadislariga tayangan holda tarbiyalasak juda katta yutuqlarga erishishimiz. Har bir yosh avlod bobokalonimiz Imom al-Buxoriy hadislarini orqali jamiyatda o'rin o'zlarining shinam o'rinlarini egallashlari mumkindir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatishning tamoyillari ham bir necha guruhlariga bo'linadi. Bolalar ma'lumotlarni yoshlariga mos holda qiziqarli rasmlar orqali va hayotiy misollar asosida yaxshiroq, tezroq qabul qiladilar. Shu sababli Imom al-Buxoriyning hadislarini boshlang'ich sinf bolalariga o'rgatishda quyidagi tamoyillarga rioya qilishlari lozim deb hisoblayman.

1.Hadislarni bolalarning yoshiga moslashtirgan holda soddalashtirib tushuntirish.

2.Imom al-Buxoriy hadislarini kundalik hayotda uchraydigan misollar orqali tushuntirish.

3.Bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan hadislarini tanlash bolalarning atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga yo'naltirishga yordam beradi. Bolalar aniq misollar, hikoyalar va tasviriy usullar orqali bilimni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Shundan kelib chiqqan holda ularga murakkab va uzoq tushuntirishlar o'rniga qisqa, aniq va qiziqarli usullar samaraliroq bo'ladi. Bolalar o'rgatmoqchi bo'lgan bilimlarimizni harakat va o'yinlar bilan yaxshiroq qabul qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatishda samarali metodlardan foydalanish bolalarning chaqqonligi va faolligini oshiradi. Interfaol metodlar bolalarning bilimlarini tez, oson, qulay, xotirada yaxshiroq saqlanib qolishiga va faol o'zlashtirishiga yordam beradi. Rol o'ynash orqali bolalarning hadis mazmunini tushunish uchun kichik sahnalarni ijro etishlari mumkin. Misol: Hadis: "Tabassum qilish - sadaqadir" (al-Adab al-Mufrad,300). Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir - birlariga har doim yordam berish, ahil- totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, ezgulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy qalbi pok, imonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi. Imom Buxoriy hadislaridan: "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir". Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab, ish tutishini ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarini qadrlaydi. Demak, hadisning mohiyati shunga qaratilganki, odamlar bir- biriga faqatgina moddiy narsalar bilan yordam berish emas, balki moddiy va ma'naviy imkoniyatiga qarab muhtojlarga yordam berishi, imkoniyati bo'lmaganida esa birovlariga umuman yomonlik qilmaslik bilan ham birovlariga yaxshilik qilishi e'tirof etilgan. Bolalar ikki guruhga

bo'linishadi. Birinchi guruh bolalar g'amgin, ikkinchi guruh bolalar esa tabassum qilib yurishadi. O'qituvchi bolalarga savol beradi: "Qaysi guruhdagi bolalar atrofdagi insonlarga hursandchilik va baxt ulashadi?" Shundan so'ng hamma o'quvchilar ikkala guruh bolalarni solishtirishadi va tabassum qilayotgan o'quvchilarga qarab hadis mazmunini anglab olishadi. O'qituvchi ham yana bir bor ochiqlab o'tadi. Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatishda zamonaviy metodlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Hadislarni o'rgatishda zamonaviy metodlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida hadislarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda bolalarga ularning yoshlariga mos bo'lgan videoroliklar yaratish mumkin. Bolalarga qiziqarli bo'lgan rollarga hos ovoz bilan audio hikoyalar yaratib, bolalarga eshittirish mumkin. Bolalar saxna ko'rinishlar orqali hadislarining mazmunini tushuntirib berishadi. Bu usul bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Amaliy tadbirlar orqali hadislarini o'rgatish."Axloq haftaligi" tadbiri.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hafta davomida har kuni bitta hadis o'rgatilib, uning mazmunini ochiqlab, unga amal qilish bo'yicha vazifalar berib boriladi. Bunda bolalarning faolligi oshiriladi, hadis mazmunini real hayot bilan bo'g'lashga yordam beradi va o'quvchilarni hadisga amal qilishga undaydi.

Kun	O'rganiladigan hadis	Amaliy topshiriq
Dushanba	"Rostgo'ylik yaxshilikka yetaklaydi"	O'quvchilar bir kun davomida faqat rost gapirishga harakat qilishadi
Seshanba	"Ota-onaga yaxshilik qiling"	O'quvchilar ota-onalariga yordam berishadi va bu haqida yozib kelishadi
Chorshanba	"Musulmon-birodarining oynasidir"	Sinfdoshiga yordam berish yoki yaxshi maslahat berish topshiriladi
Payshanba	"Yaxshi so'z sadaqadir"	Faqat yaxshi so'zlar ishlatish va atrofdagilarni iltifot bilan xursand qilish vazifasi beriladi
Juma	"Tabassum qilish-sadaqadir"	Bir-biriga tabassum qilib, mehribon bo'lish topshirig'i

"Hadislar bilan yashaymiz" shiori ostida boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayot tarziga Imom al-Buxoriyning hadislarini singdirish. Hadislar bilan yashash – bu musulmonlarning hayotiga nur sochish, ularning kundalik amallarini Allohning irodasiga moslashtirishga harakat qilishdir. Hadislar orqali bolalarga hayotning sir-sinoatini, hayotda kutulmagan vaziyatlarni hal qilish kabi saboqlarni hayotlariga singdirishimiz mumkin. Hadislar insonning qanday yashashi kerakligini, insonlar bilan qanday yaxshi munosabat o'rnatishi kerakligini o'rgatadi. Bugun biz yosh avlodga hayoti davomida eng zarur bo'ladigan, asqotadigan, hayoti davomida uchrab turadigan muommolariga yechim bo'ladigan hadislarini saralab olib, maktab darsligiga kiritsak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlagan maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Hadislarni o'rgatishda dogmatik usulda emas balki, tushunadigan shaklda o'quvchilarga o'rgatsak ko'zlagan maqsadimizga erishsak bo'ladi. Hadisning mohiyatini o'quvchi to'liq anglab yetsagina vaziyatlarda qo'llay oladi. Aks holda, u darslik va sinfda qolib ketaveradi. Imom al-Buxoriy hadislarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish, ularning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Imom al-Buxoriyning hadislarini o'quvchilarga tushunarli qilib etkazish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1.Axloqiy saboqlar: Imom al-Buxoriyning hadislarida adolat, mehr-shafqat, poklik, to'g'ri niyat va boshqalarga hurmat kabi axloqiy qadriyatlar haqida gapiriladi. Masalan, "Kimki o'ziga yaxshilik qilishni xohlasalar, boshqalarga yaxshilik qilsin" degan hadisni o'quvchilarga tushuntirish, ularni mehribon va halol bo'lishga chaqiradi.

2.Namoz va ibodatlar: Imom al-Buxoriy hadislarida namoz, ro'za, zakot kabi ibodatlarini bajarishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarga bu hadislarini o'rgatish, ularni diniy mas'uliyatni tushunishga yordam beradi.

3.Yaxshi odatlar: "Yaxshi komshiga yaxshi munosabatda bo'lish" yoki "Sog'liqni saqlash va ortiqcha isrof qilmaslik" kabi hadislar orqali o'quvchilarga yaxshi odatlar va to'g'ri hayot tarzini o'rgatish mumkin.

4.O'qish va ilm olish: Imom al-Buxoriy hadislarida ilm olishning ahamiyati va bu orqali insonning yuksalishi haqida ko'plab ma'lumotlar bor. "Ilm olish har bir musulmonga farzdir" degan hadisni o'quvchilarga tushuntirish, ularni o'qishga, bilim olishga undaydi.

Imom Buxoriyning to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga tegishli umumiy qoidalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi, balki insonlardagi insoniylik va boshqa tuyg'ularni qadrlaydi, shakllantiradi va uni hayotimizga tatbiq qilishga yordam beradi. Buxoriy hadislarida mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-onaga, ayollarga va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar e'zozlanadi. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimalarni qilish kerak va nimalarni qilmaslik kerakligi haqida yozilgan. Shu tarzda, Imom al-Buxoriyning hadislarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiga singdirish, ularni axloqiy va diniy qadriyatlar bilan boyitish, shuningdek, to'g'ri hayot tarzini shakllantirishga, insonlar orasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Maqsad: Hadislarni hayotga tatbiq etishni o'rgatish. Tashkil etish tartibi: Har bir o'quvchiga bittadan hadis tanlab beriladi. Tanlab berilgan hadis asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir hafta davomida hayotida qanday o'zgarishlar qilgani haqida, hadislar ularning hayotiga kiritgan ijobiy ta'sirlari haqida bitta daftarga hadisdan olingan xulosalarini yozib tayyorlab kelishadi. Hafta davomida uyda, maktabda hadislariga amal qilishadi va hafta oxirida Imom al-Buxoriyning hadislariga amal qilganliklari asosida ota-onalarining ular haqidagi fikrlarini bir-birlari bilan bo'lishishadi. Masalan: O'quvchi "Mehribon bo'ling" hadisini tanlagan bo'lsa, u hafta davomida ukasiga yoki singlisiga yordam bergani, do'stalariga yaxshi muomilada bo'lgani haqida hikoya qiladi. "Hadislarni chiroyli yozamiz" insholar tanlovi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari hadislarini o'rganibgina qolmay, chiroyli yozish ko'nikmalarini ham shakllantirib borishlari mumkin bo'ladi. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan hadislarini chiroyli yozib, uni bezaklar bilan bezab borishadi yoki Imom al-Buxoriyning hadislariga mos keluvchi qisqa hikoya yoki insho yozishadi. Eng yaxshi ishlar doskaga ilib qo'yiladi yoki taqdirlanadi. Bu tadbir nafaqat hadislarini eslab qolishga, balki yozma nutq va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Amaliy tadbirlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga hadislarini o'rgatishdagi yangi yondashuvlar bolalarning yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Quyida Imom al-Buxoriyning hadislarini bolalarning kundalik hayotiga singdirish uchun bir necha tadbirlar keltirilgan bo'lib, ular o'quvchilarning hadislarini chuqurroq tushunishiga va amalyotda qo'llashiga yordam beradi. O'rganilgan hadislar asosida "Hadisni kashf qil"-interfaol izlanish o'yini tashkillashtiramiz. Maqsad: Bolalarni mustaqil izlanish va hadislarining hayotiy ahamiyatini topishga o'rgatishni tasvirlaydi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, hadisga mos keladigan xulosa chiqarib, fikrlarini aytishadi. Guruhdagi hulosalar to'planib muhokama qilingach o'qituvchi tomonidan fikrlar izohlanadi va hadis to'liq bayon qilinadi. Misol: O'qituvchi "Bir kishi bozor maydonida qimmatbaho narsa topdi. U qanday yo'l tutishi kerak?" degan savol beradi. O'quvchilar javob izlashadi va muhokama qilishadi. Yakunda o'qituvchi "Halol bo'ling, haromdan tiyiling" hadisini o'rgatadi va uni hayot bilan bo'g'lagan holda o'quvchilarga ochiqlab beradi. "Hadis bilan bir kun"-voqealar orqali ta'lim berishni boshlang'ich sinflarda rivojlantirishimiz mumkin. Maqsad: O'quvchilarning kundalik hayotiga Imom al-Buxoriyning hadislarini singdirish. O'quvchilarga bir kun davomida hadisga muvofiq yashash vazifasi topshiriladi. O'quvchilar darsdan keyin hadisga amal qilgach, o'zlarining his-tuyg'ulari va hadisli kun haqidagi taassurotlarini sinf burchagidagi o'zlariga ajratilgan daftarga hulosalab yozib ketishadi. Hafta so'ngida daftarlari muhokama qilinib, o'qituvchi tomonidan o'quvchilar fikrlari muhokama qilingach turli usullar bilan rag'batlantirilib boriladi. Zamonaviy bolalar visual materiallarini tezroq qabul qiladilar. Shu sababli hadis mazmunini aks ettiruvchi qisqa animatsion videolar va rasmlar bilan tushuntirish mumkin. Slayd-shou yoki infografikalar yordamida hadislarini yoritish mumkin. Interaktiv elektron darsliklardan foydalanish mumkin. Ilmiy ekskursiya orqali ham o'quvchilarni Imom al-Buxoriyning yodgorlik majmuasiga olib borib uning

hadislariga yanada boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini oshirish mumkin. Hayotiy misollar va ro'li o'yinlar hadislarining amaliy hayotdagi ahamiyatini ochib beradi. Bu usul hadislarini real hayot bilan bog'lash orqali tushunishni osonlashtiradi. Bu usullar o'quvchilarning hadislarini eslab qolishiga va ularni hayotda qo'llashiga yordam beradi.

“Mukofot va rag‘batlantirish” usulidan foydalangan holda o‘quvchilarni rag‘batlantirish orqali hadislarini bolalar hayotiga singdirish. Bolalarni har doim bir-birlari bilan raqobat qildirish orqali kattaroq samaraga erishiladi. Raqobat bo‘lgan muhitda, albatta, yuksalish bo‘ladi. Shu sababdan boshlang'ich sinflarga hadislarini o'rgatishda turli xil metodlar orqali o'yinlar o'ynatib, ularni rag‘batlantirib turish orqali hadislarini yaxshiroq o'rgatish mumkin. Rag‘batlantirish jarayonida o‘qutuvchi oqilona usuldan foydalanishi juda muhim. Chunki oddiy raqobat orqali ham ayrim o'quvchilar darsga bo‘lgan qiziqishlarini yo‘qotishlari mumkin. Bu usulda hadislarini yaxshi yod olgan yoki amaliyotda qo‘llagan bolalarni mukofotlash ularni yanada rag‘batlantirib boradi va darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Darsga qatnashmagan o'quvchilarni ham boshqacha rag‘batlantirish orqali darsga, hadislarini yod olishga va uni amaliyotda qo‘llashi uchun bolaning qiziqishiga qarab rag‘batlantirib borish kerak bo‘ladi. Ana shu holatda o‘qituvchining haqiqiy pedagogligi namoyon bo‘ladi. Bunday holatda barcha o'quvchilarning hadislarini o'rganishga, yod olishga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi va hadislar orqali hayotni anglab borishadi. Bolalarning atrofga bo‘lgan, o‘ziga bo‘lgan ishonchi rag‘batlantirish orqali takomillashadi. Boshqa o'quvchilar ham avvalgiga nisbatan faolroq bo‘lib, ko‘proq hadislar yod olishga qiziqishadi. Bunday holatlarda o‘qituvchi turli usullar orqali bolalarni rag‘batlantirib borishi mumkin. Masalan: hafta davomida o‘qituvchi hadis yodlagan o'quvchilarni kuzatib borib, ularni amalda ko‘proq qo‘llagan o'quvchini rag‘batlantirishi mumkin yoki umuman qiziqmagan o'quvchini ham bolaning qiziqishidan kelib chiqqan holda rag‘batlantirib borilsa ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Shundan so‘ng o'quvchilar fikrini hammaga ochiqlab beradi va o‘qituvchi tomonidan tahlil qilingan holda boshqalarga ham ko‘rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hadislarini o'rgatishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, interfaol o'yin, hadislarini hayot bilan bog'lash va zamonaviy metodlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli, ibratli va namunaviy bo‘ladi. Hadislarini eshittirish, ularni roli o'yinlar orqali tahlil qilish, “Yaxshi ishlar daftarini yuritish” kabi metodlar bolalarning nafaqat tushunishiga, balki kundalik hayotda qo‘llashiga ham yordam beradi. Maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayotga hadislar asosida komil inson qilib tarbiyalab ulg‘aytirishdan iboratdir. Hadislarini yoshlar hayotiga tatbiq etish orqali yosh avlodni ma'naviy boy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib katta hayotga tarbiyalashdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hadislarini o'rgatishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib, qiziqarli va interfaol usullarni qo‘llash zarur. Ushbu metodlar orqali bolalar nafaqat bilim olishadi, balki hadislarining hayotiy qo‘llanilishini ham o‘z tajribalarida sinab ko‘rishadi. Bu esa ularning aloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Amaliy tadbirlar orqali hadislarini o'rgatish bolalar uchun yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. Hikoyalar, haftalik axloqiy mashg‘ulotlar va yaxshi ishlarga rag‘batlantirish orqali o'quvchilar Imom al-Buxoriy hadislarining hayotiy ahamiyatini tushunib yetadilar. Eng muhimi bolalar hadislarini o'rganish bilan cheklanmay, ularga amal qilishni ham o'rganadilar. Zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarning Imom al-Buxoriyning hadislarini kundalik hayotga tatbiq etishda juda samarali usuldir. Zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda hadislarini o'rgatish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilarga Imom al-Buxoriyning hadislarini o'rgatar ekanmiz biz uchun ham bu juda katta yutuqlardan biridir. Chunki shunday buyuk insonning avlodimiz va bundan g‘urur tuyamiz. Hadislar orqali barkamol shaxsni rivojlantirar ekanmiz, kelajakda farzandlar, albatta, o‘zlariga hulosa olib, yetuk, yurtimizga nafi tegadigan farzandlar bo‘lib yetishishadi. Yoshlar katta hayotga qadam bosishar ekan, albatta, o‘ziga yarasha qiyinchiliklar bilan yuzlashishadi bunday holatlarda buyuk bobokalonlarimizning hadislarini biz bolalarga turli xil metodlar orqali qiziqarli qilib tushuntirib berganimizni eslashadi va hech bir qiyinchiliklarda qiynalmay o‘zlari orzu qilgan hayotga erishishlari mumkin. Buxoriy hadislarini o'rganish yoshlarning to‘g‘ri yo‘ldan yurishiga, axloqiy

- 182 fazilatlarini shakllantirishiga va muaffaqiyatli kelajak qurishiga yordam beradi. Hadislar nafaqat diniy bilim, balki hayotiy tajriba ham beradi, yoshlarni yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomiy manbalar, pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va internet manbalaridan foydalanilgan. Imom al-Buxoriy. "Al-Jome' as-Sahih" (Sahih al-Buxoriy). - Toshkent: Hilol nashr 2018.
2. Imom Termiziy. "Al-Jome' as-Sahih" (Sahih Termiziy). - Toshkent: Movaraunnahr, 2019.
3. G'ulomov Sh., Vahobov A., O'rinboyeva Z. "Boshlang'ich sinflarda dars o'tish metodikasi". - Toshkent: O'qituvchi 2015
4. To'rayev A. "Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari". - Toshkent: Fan 2021.
5. Xolmirzayeva D. "Diniy ta'lim va ma'naviy tarbiya asoslari". - Toshkent: Sharq, 2018
6. Hasanova M. Hadis ilmi va ta'lim metodikasi. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019.
7. Ismoilov A. (2016). Boshlang'ich sinfda diniy axloqiy ta'lim metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Ahmadov U. (2021). Boshlang'ich ta'limda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
9. Shodmonov F. (2017). O'qitishda metodik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston ta'lim akademiyasi.
10. Oilada axloqiy tarbiya masalalarining dolzarbligi - Imom al-Buxoriy xalqaro tadqiqot markazi (Bukhara.uz)